

“TURKIY XALQLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

O‘ZBEK XALQ OG‘ZAKI IJODINI XORIJDA O‘RGANISH MASALALARI

Dilafro‘z Abdujamilovna QALANDAROVA,

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti,
fil.f.f.d., [PhD].

[E-mail: d.kalandarova2017@yandex.ru](mailto:d.kalandarova2017@yandex.ru)

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15290738>

Annotatsiya: Maqolada turkiy xalqlar folklorining xorijda o‘rganish masalalari, unga dastlab qo‘l urgan olimlar, jumladan, nemis olimi Karl Rayxlning o‘zbek folklorshunoslarining ilmiy ishlaridan keng foydalangan va o‘z tadqiqotlarida ularga ingliz va nemis tillarida keng munosabat bildirgan taniqli turkshunoslardan biri ekani, uning o‘zbek folklori tarjimoni va tadqiqotchisi sifatidagi faoliyati, nemis va ingliz tillarida amalga oshirgan tarjimalari, yaratgan ilmiy tadqiqotlarining mazmun-mohiyati, mundariyasi, tuzilishi haqida fikr yuritilgan. Olimning qiyosiy tahlil asosida turkiy xalqlar og‘zaki ijodi namunalari orasidagi o‘xshashlik va farqlarni yorqin ifodalovchi aniq va qiziqarli ma‘lumotlari bayon etilgan. Jahon folklorshunosligida o‘zbek folkloriga qiyosiy yondashuv asoslari hamda usullari Karl Rayxlning ingliz tilidagi tarjima va tadqiqotlari misolida aniqlangan.

Kalit so‘zlar: folklor, o‘zbek folklori, Karl Rayxl, tarjimon, tarjima, tadqiqotchi, epos, turk eposi, doston, baxshi.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы изучения фольклора тюркских народов за рубежом, учёные, впервые приступившие к его изучению, в том числе немецкий учёный Карл Райхл, который является одним из известных тюркологов, широко использовавших в своих исследованиях научные труды узбекских фольклористов и откликнувшихся на них на английском и немецком языках, его деятельность переводчика и исследователя узбекского фольклора, его переводы на немецкий и английский языки, а также его научные изыскания. обдумывали суть, содержание и структуру. На основе сравнительного анализа представлены ясные и интересные сведения ученого, ярко выражающие сходство и различие примеров устного творчества тюркских народов. На примере переводов и исследований Карла Райхла на английском языке определены основы и методы сравнительного подхода к узбекскому фольклору в мировой фольклористике.

Ключевые слова: фольклор, узбекский фольклор, Карл Райхл, переводчик, перевод, исследователь, эпос, турецкий эпос, эпос, бахши.

Abstract: The article discusses the issues of studying the folklore of the Turkic peoples abroad, the scientists who first touched upon it, including the German scientist Karl Reichl, who was one of the famous Turkologists who widely used the scientific works of Uzbek folklorists and widely commented on them in his studies in English and German, his activities as a translator and researcher of Uzbek folklore, his translations into German and English, the content, content, and structure of his scientific studies. The scientist’s clear and interesting information, which vividly expresses the similarities and differences between the samples of the oral art of the Turkic peoples based on comparative analysis, is presented. The foundations and methods of a comparative approach to Uzbek folklore in world folklore are identified on the example of Karl Reichl’s translations and studies in English.

“TURKIY XALQLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

Keywords: folklore, Uzbek folklore, Karl Reichl, translator, translation, researcher, epic, Turkish epic, poem, bakhshi.

O‘zbek folklorshunosligida qiyosiy folklorshunoslik kundan kunga rivojlanib borayotgan muhim yo‘nalishlardan biridir. Bu borada X.Egamovning o‘zbek ertaklari boshqa turkiy xalqlar ertaklari bilan qiyosiy o‘rganilgan “Sayyor syujetlar” (1979), “Sovet sharqi turkiy xalqlari ertakchilik aloqalari tarixidan ocherklar” (1982), Y.Nurmurodovning “O‘zbek folklorining olmon tiliga tarjima qilinishi tarixi muammolari” (1983), “O‘zbek folklori nemis tilida” (1987), “O‘zbek-nemis folklor aloqalari” (1999), A.Saparovning “O‘zbek xalq dostonlarida ritm va rus tiliga o‘girish jarayonida uni ifodalash muammolari” (1989), X.Ro‘zimboyevning “Xorazm folklorining xorijda o‘rganilishi (XIX asr–XX asr boshi)” (1996), B.Shamsiyevaning “Chet el adabiyotshunosligida o‘zbek folklori masalalari” (1994), D.Rahimboyevaning “O‘zbek xalq maqollarining qiyosiy tipologiyasi” (2002), Z.O.Jumaniyozovning “Ravshan” dostoni nemischa tarjimasida milliylikni qayta yaratish” (2008), H.O‘.Yusupovning “O‘zbek xalq og‘zaki nasri namunalarining inglizcha tarjimalarida milliy koloritning ifodalanishi (ertaklar, latifalar misolida)” (2011), M.Jo‘rayevaning “Fransuz va o‘zbek ertaklarida modallik kategoriyasining lingvokognitiv, milliy-madaniy xususiyatlari”, U.Yo‘ldoshevning “Hajviy matnlar tarjimasining lingvostilistik va lingvokulturologik xususiyatlari (ingliz tiliga tarjima qilingan o‘zbek xalq latifalari misolida)”, (2017), R.R. Kasimovning “O‘zbek to‘y va motam marosim folklori matnlarining inglizcha tarjimasida etnografizmlarning berilishi”, O.M.Fayzulloyevning “O‘zbek folkloridagi lingvokulturemalarning inglizcha tarjimada berilishi (bolalar folklori va ertaklar misolida) (2019), N.Qodirovaning “Ingliz va o‘zbek adabiyotida “evrilish motivi” (2020) mavzusida yaratgan tadqiqotlari mazkur sohaning nazariy-metodologik asoslarini yaratishda va mustahkamlashda o‘z o‘rniga egadir.

Tadqiqot ob‘yektiga yondashishda, asosan, qiyosiy, tarixiy-qiyosiy, qiyosiy-tipologik usullarda ish yurituvchi qiyosiy folklorshunoslik og‘zaki ijod na‘munasi bo‘lgan badiiy asarlarni yozma adabiyot namunalari bilan qiyosan solishtirishni nazarda tutadi. U turli xalqlar tilida yaratilgan og‘zaki matnlarning tutashuv nuqtasini ochishni ko‘zda tutadi. Aynan shu narsa uning asosiy predmetini tashkil etadi.

Qiyosiy folklorshunoslik fan sifatida umumfolklorshunoslik hamda umumadabiyotshunoslikning tarkibiy qismi hisoblanib, umummetodologik ahamiyatga ega.

“TURKIY XALQLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

Qiyosiy folklorshunoslik o‘zaro adabiy ta’sir, adabiy aloqa, “qayta yaratish”, “qayta tiklash”, badiiy sintezlashtirish, stilizatsiyalash kabilarga alohida diqqatni tortadi.

Mazkur sohada ishlash tadqiqotchidan, shubhasiz, chet tillarni bilishni talab etadi. Agar tadqiqotchi bu talabga javob bera olmasa, tarjimalardan bevosita foydalana olmasa, kutilganiday natijalarga erisha olmaydi.

Qiyosiy folklorshunoslik o‘zaro qiyoslanayotgan milliy madaniyatning “konseptosferasi”ni anglashni talab etadi.

O‘xshash (yoki qarama-qarshi) janriy tuzilmalar, kompozitsiya sxemalari, motiv va mavzular, obraz va personajlar o‘rtasidagi o‘xshashliklarni aniqlaydi. Buning sabab va omillarini ochib beradi. Aniqlangan o‘xshashliklarni mutlaqlashtirmasdan, tahlil davomida o‘xshashliklar va farqlar tizimini belgilab beradi.

Qiyosiy folklorshunoslik shakllanishi va taraqqiy etishida germaniyalik aka-uka Grimmlar – Vilgelm (1786–1859) va Yakoblar (1785–1863) tomonidan yozilgan “Nemis mifologiyasi” kitobi muhim o‘ringa ega. Yana bir nemis olimi Teodor Benfeyning qadimgi hind eposi Panchatantraning nemis tilidagi tarjimasiga (1859) yozgan so‘zboshisida ham ushbu sohaga oid muhim nazariy qarashlar o‘z aksini topgan.

Rus olimlaridan F.I.Buslayev (1818–1897), A.N.Afanasev (1826–1871), A.N.Veselovskiy (1839–1906), V.M.Jirmunskiy (1891–1971)larning nazariy qarashlari ham bu soha ravnaqi uchun katta turtki bo‘ldi.

Umuman aytganda, qiyosiy folklorshunoslik folklorshunoslik fanining tarkibiy qismi sifatida dunyo folklorshunosligida o‘ziga xos mavqega ega.

XX–XXI asrda germaniyalik olim Karl Rayxl qiyosiy folklorshunoslikning yetakchi, ko‘zga ko‘ringan vakillaridan biri sifatida ushbu maydonga kirib keldi. Uning bu boradagi tadqiqotlari qamrovi, asosan, Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq xalqlari folklorini o‘rganishga qaratilgan.

Karl Rayxl o‘zbek folklorining xorijda nemis va ingliz tillarida tarqalishi hamda o‘rganilishiga shu tillarda amalga oshirgan tarjimalari qatori 1980–1989 yillardagi izlanishlari asosida yaratgan “Uzbek Epic Poetry: Traditions and Poetic Diction” (1989, “O‘zbek epik she’riyati: an’analar va badiiy uslub”), 1992-yilda uning yanada kengaytirilgan va boyitilgan nashri “Turkic Oral Epic Poetry: Traditions, Forms, Poetic Structure” kitoblari bilan katta hissa qo‘shgan taniqli folklorshunos olimlardan biridir. Bu kitob “Тюркский эпос: традиция, формы,

“TURKIY XALQLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

поэтическая структура” nomi bilan V.Treyster tomonidan D.A.Funka umumiy tahriri ostida ingliz tilidan rus tiliga tarjimada chop etilgan.

K.Rayxl tadqiqotlari jahon folklorshunosligida o‘zbek folkloriga qiyosiy yondashuv asoslari hamda usullarini aniqlashda muhim manba vazifasini o‘tay olishi, qiyosiy folklorshunoslikning o‘zbek folklorshunosligi tarkibidagi o‘rni, maqsad va vazifalari, metodologik xususiyatlari, shakllanish tarixi va nazariy taraqqiyot bosqichlarini dalillashi, o‘zbek folklorining jahon qiyosiy folklorshunosligi manbasi sifatida tanlanish va o‘rganilish omillarini asoslashga imkon berishi bilan ahamiyat kasb etadi.

Olimning tadqiqotlarida o‘zbek folkloriga turkiy folklor kontekstida qiyosiy yondashilgan bo‘lib, ularda o‘zbek va boshqa turkiy xalqlar ertaklari hamda dostonlari poetik strukturasiidagi umumiy va differensial belgilar, eposda bosh qahramon, syujet modellarini tanlab tasvirlashda baxshilar mahorati, folklor va yozma adabiyot aloqasi, folklorizmlar tipologiyasi, tarixiy va zamonaviy biografik asarlar mundariyasi va ularning til xususiyatlarini tanqidchi uslubi hamda mahorati masalalari yoritilgan.

Tadqiqotchining “Turkic Oral Epic Poetry: Traditions, Forms, Poetic Structure” kitobi “Studies in Oral Traditions” rukni ostida ingliz tilida Nyu-Yorkda nashrdan chiqqan bo‘lib, o‘n bob, bibliografiya va atamalar ro‘yxatidan tashkil topgan. Uning “Kirish” qismida muallif shunday izoh keltirar ekan, o‘zbeklar nomini alohida tilga olgani kuzatiladi: *“The focus of the book will be on what I term the “central traditions”. By “central traditions” of Turkic oral epic poetry I mean the epic traditions of the **Uzbeks** (and Uighurs), Kazakhs, Karakalpaks, and Kirghiz...”* [Reichl K. 1:4]. (Tarjimasi: Kitobning asosida “barqaror an’analar” atamasini qo‘yganman. “Barqaror an’analar” deganda, turkiy xalqlar hisoblanmish **o‘zbeklarning** (va uyg‘urlarning), qozoqlar, qoraqalpoqlar va qirg‘izlarning og‘zaki ijodi namunalari bo‘lmish eposlarni nazarda tutganman...– D.Q.).

Muallif bu o‘rinda xalq og‘zaki ijodi asarlari tili haqida ham alohida fikr yuritib, turk (“Turkish”) va turkiy (“Turkic”) tushunchalari izohiga ham alohida to‘xtaladi: *“In order to avoid confusion, the distinction between “Turkish” and “Turkic” has been carefully maintained throughout the book. “Turkish” refers to the language of the people of Turkey; older forms of Turkish (before Ataturk’s language reforms in 1920s) are generally referred to as Ottoman or Ottoman Turkish. “Turkic”, on the other hand, refers to the language group to which Turkish belongs”* [Reichl K. 1:5-6].

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O'RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

Ko‘rinyaptiki, muallif “turkish”, ya’ni turk tili Turkiyaliklarning tili ekani, uning qadimiy ko‘rinishlari (1920-yillardagi Otaturk til islohotidan oldin) umuman turk (otoman)larga tegishli bo‘lgani, “turkic” – turkiy til esa turk tili ham kiradigan til guruhi ekanini ta’kidlagan.

Kitobning “The Turkic Peoples: Backgrounds and Contexts” nomli ilk bobida turkiy xalq – turklar, o‘zbeklar, ozarbayjonlar, qozoqlar, qoraqalpoqlar, uyg‘urlarning miloddan avval boshlanib, XX asrning boshlarigacha kechgan tarixi, ko‘chmanchilik hayoti, dini, tili, madaniyati, “Turkic Epic Poetry: The Earliest Documents” nomli ikkinchi bobida “O‘g‘uznoma”, “Devonu lug‘otit-turk”, “Dada Qo‘rqut kitobi”, “Kultegin bitigi” asarlarining yaratilishi, mualliflari, ma’no-mundariyasi, ulardan olingan parchalar tarjimasi keltirilgan.

Kitobning “The Singer: Shaman, Minstrel, Poet” deb ataluvchi uchinchi bobida ijrochilar: shomon, kuychi, shoir maqomida o‘rganilgan. Ayniqsa, O‘rta Osiyo xalqlarining doston kuylovchilari – o‘zbeklarda baxshilar, qoraqalpoqlarda jirov va baqsilar, qozoqlarda oqinlar, qirg‘izlarda manaschilar, maddoh va qissaxonlar xususida asosli fikrlar yuritilgan. Og‘zaki epik janr ijodkor va ijrochilarining shomonlardan farqi va o‘xshashligi izohlab berilgan.

Navbatdagi “Ijro” deb nomlangan to‘rtinchi bob Markaziy Osiyo xalqlarida urf-odat, an’ana, marosimlar, ularning musiqiy-marosimiy tuzilishi, ritual yo‘nalishi, ijroda deklamatsiya, ijrochi va auditoriya, “Janr” deb ataluvchi beshinchi bobda epos, she’r va nasr bilan bog‘liq janrlar, romanik epos, qahramonlik qo‘shiq va ertaklari masalalari, “Syujet modellari” nomli oltinchi bobda “Qambar” va qahramon tushunchasi, “Go‘ro‘g‘li”dagi sovchilik, “Alpomish”dagi qahramonning uyga qaytish motivi modellari tabiati, badiiyati muammolariga munosabat bildirib o‘tilgan. “Alpomish” dostonining qisqacha mazmuni hamda Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li kuylagan variantidan ba’zi parchalarning asliyati va ingliz tilidagi tarjimalaridan namunalar keltirilgan.

Kitobning “The Varieties of Formulaic Diction” nomli yettinchi bobi xalq og‘zaki ijodi matnlarining stilistik formulalari, ularda vazn, parallelizm, formula va formulalar tizimi tahliliga, sakkizinchi bobi ijro jarayonidagi badihago‘ylik, ya’ni “improvizatsiya”, epik xotira, variantlilik, qat’iylik, to‘qqizinchi bobida formul ritorika, uslub, badiiy ijodda poetik usullarni qo‘llash, personajlar tizimi va tabiatiga munosabat aks ettirilgan.

“TURKIY XALQLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

Nihoyat, kitobning “Transformations in Space and Time” nomli o‘ninchi bobi “makon va zamon” masalasi “Go‘ro‘g‘li” va “Alpomish” dostonlarining turli davrlarda yozib olingan turfa variantlarini yoritishga bag‘ishlangan.

Umuman olganda, Karl Rayxl tadqiqotlari turkiy, jumladan, o‘zbek xalqi og‘zaki epik ijodi bo‘yicha juda qimmatli materiallarni o‘z ichiga olganligi bilan e‘tibor va e‘tirofga loyiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Reichl Karl. *Turkic Oral Epic Poetry: Traditions, Forms, Poetic Structure*. Garland Publishing, inc. – New York & London, 1992. – 395 p.
2. Reichl K. *Uzbek Epic Poetry: Traditions and Poetic Diction*. – Hainsworth, 1989.
3. Райхл К. Тюркский эпос: традиция, формы, поэтическая структура / Карл Райхл: пер. с англ. В.Трейстер под.ред. Д.А.Функа. – Москва: Восточная литература, 2008. – 383 с.
4. Лорд Альберт. *Сказитель*. – М.: Восточная литература, 1994. –368 с.
5. Мирзаев Т. «Алпомиш» достонининг ўзбек вариантлари. – Тошкент: Фан, 1968. –168 б.
6. Мирзаев Т. Халқ бахшиларининг эпик репуртуари. – Тошкент: Фан, 1979. – 152 б.
7. Мирзаев Т. Эпос и сказитель. –Ташкент: Фан, 2008. – 410 с.